

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK MOLIVAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich

Namangan davlat texnika universiteti,
“Menejment” kafedrasini mudiri
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
E-mail: mullabaev.bahtiyor@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligi hamda uning mintaqaviy iqtisodiy o‘shiga ta’siri kompleks ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida kichik biznesning moliyaviy barqarorligi uning daromadlilik darajasi, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi, investitsion faolligi, kredit va boshqa moliyalashtirish manbalariga kirish imkoniyatlari orqali baholanadi. Maqolada mintaq misolida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi hududiy mahsulotni shakllantirishdagi ulushi, xizmatlar, savdo, qurilish va investitsiya jarayonlaridagi faolligi empirik ma’lumotlar asosida tahlil qilindi. O‘tkazilgan tahlillar kichik biznes moliyaviy barqarorligining oshishi bandlik darajasining ko‘tarilishi, iqtisodiyot tarmoqlarida yaratilayotgan qo‘shilgan qiymat hajmining ortishi hamda mintaqaviy iqtisodiy o‘shish sur’atlarining jadallashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy o‘shish, mintaqaviy iqtisodiyot, mintaqaviy moliya, investitsiya faolligi, moliyaviy resurslar, yalpi hududiy mahsulot, xizmatlar sohasi, chakana savdo, bandlik, moliyaviy mexanizmlar.

Аннотация

В данной статье было комплексно исследовано влияние финансовой устойчивости субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства на региональный экономический рост. В рамках исследования финансовая устойчивость малого бизнеса оценивалась через уровень рентабельности, эффективность использования финансовых ресурсов, инвестиционную активность, а также доступ к кредитным и иным источникам финансирования. На примере региона был проведён анализ доли малого бизнеса и частного предпринимательства в формировании валового регионального продукта, а также их активности в сфере услуг, торговли, строительства и инвестиционных процессов. Полученные результаты показали, что повышение финансовой устойчивости малого бизнеса способствовало росту занятости, увеличению объёма добавленной стоимости и ускорению темпов регионального экономического развития.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, финансовая устойчивость, экономический рост, региональная экономика, региональные финансы, инвестиционная активность, финансовые ресурсы, валовой региональный продукт, сфера услуг, розничная торговля, занятость, финансовые механизмы.

Abstract

This study examined the impact of financial stability of small businesses and private entrepreneurship entities on regional economic growth through a comprehensive scientific and practical approach. Financial stability was assessed based on profitability levels, efficiency of financial resource utilization, investment activity, and access to credit and other financing sources. Using a regional case, the study analysed the contribution of small businesses and private entrepreneurship to gross regional product, as well as their activity in services, trade, construction, and investment processes based on empirical data. The findings demonstrated that increased financial stability of small businesses contributed to higher employment levels, growth in value added across economic sectors, and acceleration of regional economic growth rates.

Keywords: small business, private entrepreneurship, financial stability, economic growth, regional economy, regional finance, investment activity, financial resources, gross regional product, services sector, retail trade, employment, financial mechanisms.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot va tarkibiy islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sishni ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni tobora kuchayib bormoqda. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy tizimning barqarorligi va moslashuvchanligi ko'p jihatdan kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligi, ya'ni ularning daromadlilik, likvidligi, investitsion faolligi hamda moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Kichik biznesning moliyaviy jihatdan barqaror faoliyati bandlikni oshirish, aholi daromadlarini ko'paytirish va iqtisodiyot tarmoqlarida raqobat muhitini rivojlantirish orqali mintaqaviy va milliy iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi [1].

Xalqaro moliyaviy va iqtisodiy tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Jahon banki tahlillariga ko'ra, kichik va o'rta biznesning moliyaviy barqarorligi yuqori bo'lgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari nisbatan barqaror bo'lib, iqtisodiy inqirozlarga chidamlilik darajasi yuqoriroq bo'ladi. Shuningdek, mazkur tashkilot kichik biznesning kredit resurslariga va investitsiya moliyalashtirish mexanizmlariga kengroq kirishini ta'minlash iqtisodiy faollikni oshiruvchi muhim omil ekanligini ta'kidlaydi [2].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan ishlab chiqilgan hisobotlarda kichik biznes moliyaviy barqarorligini ta'minlash mintaqaviy rivojlanish siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu tadqiqotlarda kichik biznesning moliyaviy resurslardan samarali foydalanishi hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va xizmatlar sektorini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy asoslab berilgan. OECD ekspertlari kichik biznesni moliyalashtirishda bank kreditlari bilan bir qatorda muqobil moliyaviy instrumentlarni keng joriy etish zarurligini qayd etadi [3].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida olib borilgan tadqiqotlarda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning moliyaviy barqarorligi muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatilgan. Xususan, kichik biznes subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish kambag'allikni qisqartirish, bandlikni oshirish va hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlashning samarali vositasi sifatida baholanadi. Ushbu xulosalar rivojlanayotgan mamlakatlar uchun alohida dolzarb ahamiyatga ega [4].

O'zbekiston Respublikasida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda qabul qilingan Prezident farmon va qarorlarida tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ularning kredit va investitsiya resurslariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda hududlarda iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan aniq vazifalar belgilangan. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar kichik biznesning iqtisodiy o'sishga ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilmoqda [5].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik moliyaviy barqarorligining iqtisodiy o'sishga ta'sirini chuqur ilmiy tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish bugungi kunda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning moliyaviy barqarorligi hamda uning iqtisodiy o'sishga ta'siri masalasi iqtisodiy fanlarda muhim nazariy va amaliy yo'nalishlardan biri sifatida shakllangan. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznes subyektlarining moliyaviy holati, ya'ni ularning daromadlilik, likvidligi, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi va moliyaviy xavflarga chidamliligi iqtisodiy o'sishning muhim omillari sifatida qaraladi. Klassik iqtisodiy nazariyalarda tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilinadi. Xususan, J. Schumpeter o'zining fundamental asarlarida innovatsion tadbirkorlik va kichik biznesning moliyaviy barqarorligi iqtisodiy taraqqiyotning uzluksizligini ta'minlashini ilmiy jihatdan asoslab bergan [6].

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda kichik biznesning moliyaviy barqarorligi tushunchasi ko'p qirrali kategoriya sifatida qaralib, u moliyaviy natijadorlik, kapitallashuv darajasi, kreditga layoqatlilik hamda investitsion faollik kabi ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Beck va Demirguc-Kunt tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlarda kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyaviy cheklolarga duch kelishi ularning iqtisodiy faolligini pasaytirishi hamda yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlarini sekinlashtirishi ilmiy asoslangan [7]. Ushbu tadqiqotlar kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini tasdiqlaydi.

Jahon banki ekspertlari tomonidan tayyorlangan hisobotlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligi iqtisodiy o'sish, bandlik va daromadlar o'sishining asosiy manbalaridan biri sifatida baholanadi. Mazkur tashkilot tadqiqotlariga ko'ra, kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga

kengroq kirish imkoniyatlari mavjud bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish barqarorroq va inklyuzivroq bo'ladi [8]. Shu bilan birga, kreditlash, investitsiya va muqobil moliyalashtirish instrumentlarining rivojlanishi kichik biznesning moliyaviy barqarorligini mustahkamlovchi muhim omillar sifatida ko'rsatiladi.

OECD tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda kichik biznesning moliyaviy barqarorligi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish bilan bevosita bog'liq ekanligi asoslab berilgan. Tashkilot hisobotlarida kichik biznesning moliyaviy imkoniyatlari kengaygan hududlarda xizmatlar sohasi jadal rivojlanishi, bandlikning oshishi va hududiy iqtisodiy tafovutlarning qisqarishi qayd etiladi [9]. OECD ekspertlari kichik biznesni moliyalashtirishda bank kreditlari bilan bir qatorda venchur kapital, kafolat fondlari va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim iqtisodiy institut sifatida e'tirof etiladi. Xususan, kichik biznesning moliyaviy barqarorligi kambag'allikni qisqartirish, bandlikni kengaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda samarali vosita ekanligi ko'rsatib berilgan [10]. Ushbu yondashuv rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning moliyaviy holati iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida qaraladi. Jumladan, X. Karimov va Sh. Ismoilov ishlarida O'zbekiston sharoitida kichik biznesning moliyaviy barqarorligi hududiy iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslangan [11]. Mualliflar kichik biznesni moliyalashtirish mexanizmlarining hududiy xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi.

A. Rasulov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznes subyektlarining bank kreditlariga kirish imkoniyatlari va ularning moliyaviy barqarorlikka ta'siri tahlil qilingan. Muallifning fikricha, moliyaviy infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi kichik biznes faoliyatini kengaytirishga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi [12]. Bu holat moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.

S. Mullajonov tadqiqotlarida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining kichik biznes moliyaviy barqarorligini mustahkamlashdagi roli yoritilgan. Muallif DXSh asosidagi loyihalar kichik biznes uchun uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini kengaytirishini ta'kidlaydi [13].

Xorijiy olimlar P. McCann va A. Rodriguez-Pose asarlarida mintaqaviy iqtisodiy o'sish va tadbirkorlik muhiti o'rtasidagi bog'liqlik tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, kichik biznesning moliyaviy barqarorligi hududiy raqobatbardoshlikni oshiruvchi muhim omil hisoblanadi [14], [15]. Endogen o'sish nazariyasi doirasida Aghion va Howitt iqtisodiy o'sishda tadbirkorlik va moliyaviy institutlarning o'zaro uyg'unligini ilmiy asoslab bergan [16].

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning moliyaviy barqarorligi iqtisodiy o'sishning muhim

determinantlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, mintaqaviy darajada kichik biznes moliyaviy barqarorligining iqtisodiy o‘shiga ta‘sirini empirik jihatdan chuqur tahlil qiluvchi tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini yanada oshira

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligi hamda uning iqtisodiy o‘shiga ta‘sirini kompleks o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda iqtisodiy tadqiqotlarning umumilmiy va maxsus metodlaridan tizimli ravishda foydalanildi. Tadqiqot jarayonida mantiqiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash, guruhlash hamda umumlashtirish metodlari qo‘llanildi. Ushbu metodlar yordamida kichik biznesning moliyaviy barqarorligi tushunchasining nazariy asoslari, uning iqtisodiy o‘shiga bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda xorijiy va mahalliy ilmiy yondashuvlar tizimli ravishda tahlil qilindi.

Tadqiqotning empirik qismida statistik va iqtisodiy-matematik tahlil metodlaridan foydalanildi. Xususan, mintaqalar kesimida kichik biznesning moliyaviy ko‘rsatkichlari, jumladan, investitsiyalardagi ulushi, xizmatlar va savdo sohasidagi faolligi hamda yalpi hududiy mahsulot hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash maqsadida dinamik qatorlar tahlili, nisbiy va o‘rtacha ko‘rsatkichlar hisob-kitobi hamda solishtirma tahlil amalga oshirildi. Shuningdek, korrelyatsiya va regressiya tahlili yordamida kichik biznes moliyaviy barqarorligining iqtisodiy o‘shiga ta‘sir darajasi baholandi. Tadqiqotda rasmiy statistika ma‘lumotlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va normativ-huquqiy hujjatlar asosiy axborot manbalari sifatida foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo‘limda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning moliyaviy barqarorligi hamda uning mintaqaviy iqtisodiy o‘shiga ta‘siri empirik ma‘lumotlar asosida atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiyot tarmoqlari kesimida kichik biznesning ishlab chiqarish hajmi, savdo va xizmatlar sohasidagi faolligi, investitsiya jarayonlaridagi ishtiroki hamda bandlikni ta‘minlashdagi roli baholanadi. Tahlil rasmiy statistik ma‘lumotlar asosida shakllantirilgan ko‘rsatkichlar orqali olib borilib, kichik biznesning moliyaviy barqarorligi iqtisodiy o‘shining muhim omillaridan biri ekanligini aniqlashga qaratilgan.

Ushbu bo‘limda kichik biznes faoliyatining vaqt bo‘yicha dinamikasi va hududlar kesimidagi farqlari chuqur o‘rganiladi. Xususan, sanoat, qurilish, savdo, xizmatlar va qishloq xo‘jaligi sohasida kichik biznesning ulushi va uning o‘zgarish tendensiyalari tahlil qilinib, iqtisodiy o‘shiga ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro bog‘liqligi aniqlanadi. Bu yondashuv kichik biznes moliyaviy barqarorligining iqtisodiyot tarkibidagi rolini yanada aniqroq baholash va mintaqaviy rivojlanishdagi nomutanosibliklarni ochib berish imkonini beradi.

Olingan empirik natijalar asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash orqali iqtisodiy o‘shini jadallashtirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shu bilan birga, mavjud muammolar va

cheklovlar aniqlanib, ularni bartaraf etish orqali kichik biznesning iqtisodiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga qaratilgan xulosalar shakllantiriladi. Ushbu bo‘limda bayon etilgan tahlil natijalari keyingi xulosa va amaliy tavsiyalar uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

1-jadval.

**Namangan viloyatida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning ulushi
2025-yil, foizda¹**

Shahar va tumanlar nomi	Qishloq xo‘jaligi	Sanoat mahsuloti	Chakana savdo aylanmasi	Jami xizmatlar	Qurilish ishlari	Investitsiya
Namangan v	92,4	55,3	91,0	75,1	92,0	83,7
Namangan sh.	90,6	63,7	90,8	52,6	90,8	92,4
Davlatobod t.	–	64,3	97,4	57,8	94,5	–
Yangi Namangan	–	84,2	89,9	65,3	76,6	–
Mingbuloq	71,9	36,5	97,8	79,5	98,6	95,9
Kosonsoy	94,0	39,3	99,1	79,1	99,3	86,9
Namangan t.	89,8	84,9	93,9	81,3	94,2	52,1
Norin	94,6	100,0	93,2	78,6	98,6	71,9
Pop	85,0	91,3	92,8	72,6	59,7	94,0
To‘raqo‘rg‘on	97,5	9,3	92,7	75,2	96,8	70,6
Uychi	93,6	64,4	99,1	76,2	77,5	65,7
Uchqo‘rg‘on	91,8	60,9	98,4	78,9	89,2	86,6
Chortoq	98,7	38,4	63,5	76,1	96,2	75,4
Chust	98,8	26,1	88,9	76,6	97,1	73,0
Yangiqo‘rg‘on	98,4	99,9	99,2	82,5	97,2	92,2

2025-yil holatiga ko‘ra, Namangan viloyati bo‘yicha kichik biznesning qishloq xo‘jaligidagi ulushi 92,4 foizni, chakana savdo aylanmasida 91,0 foizni, jami xizmatlar sohasida esa 75,1 foizni tashkil etgan. Qurilish ishlarida kichik biznes ulushi 92,0 foiz, investitsiyalarda esa 83,7 foiz darajasida shakllangan. Hududlar kesimida ayrim tumanlarda ko‘rsatkichlar yanada yuqori bo‘lib, masalan, Norin tumanida sanoat mahsulotida kichik biznes ulushi 100,0 foizni, Yangiqo‘rg‘on tumanida sanoatda 99,9 foizni, Kosonsoy tumanida chakana savdoda 99,1 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, To‘raqo‘rg‘on tumanida sanoatdagi ulush 9,3 foiz, Chust tumanida esa 26,1 foiz darajasida qolib, hududlar o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Keltirilgan natijalar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning savdo, xizmatlar, qurilish hamda qishloq xo‘jaligi sohalarida moliyaviy jihatdan eng barqaror va ustuvor iqtisodiy subyekt sifatida shakllanganini tasdiqlaydi. Biroq sanoat va investitsiya yo‘nalishlarida ayrim hududlarda kichik biznes faolligining pastligi moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi va ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligini anglatadi. Shu sababli kichik biznesni sanoat va investitsiya jarayonlariga kengroq jalb etish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash instrumentlarini takomillashtirish mintaqaviy iqtisodiy o‘sishni barqaror ta‘minlashning muhim sharti hisoblanadi.

¹ Manba: Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning moliyaviy barqarorligini baholashda uning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlarining vaqt bo'yicha o'zgarishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarmoqlar kesimida ishlab chiqarish hajmi, savdo aylanmasi, xizmatlar ko'lami hamda tashqi iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlarining dinamikasi kichik biznesning iqtisodiy o'sishdagi real hissasini aniqlash imkonini beradi. Shu sababli mazkur ko'rsatkichlarning bir necha yil davomida shakllangan tendensiyalarini tahlil qilish kichik biznes moliyaviy barqarorligining iqtisodiy o'sishga ta'sirini asoslashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

2-jadval.

Namangan viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi¹

Ko'rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Sanoat, mlrd so'm	5 002,7	5 584,1	7 174,3	8 112,6	10 133,7
Qurilish, mlrd so'm	3 310,1	4 260,7	5 247,9	6 008,8	6 722,4
Bandlik, mlrd so'm	916,7	888,4	–	–	–
Eksport, mln AQSh dollar	17 670,3	24 533,5	26 635,8	28 889,5	29 416,8
Import, mln AQSh dollar	576 399,4	447753,4	501468,8	586069,8	503836,5
Chakana savdo, mlrd so'm	8685,2	11031,4	14216,3	16395,4	19475,3
Qishloq, o'rmon va baliqchilik, mlrd so'm	13995,7	16424,9	19965,2	22675,6	26808,5
Xizmatlar, mlrd so'm	5 925,0	7 909,1	9 742,4	11 839,2	32 599,0

2020–2024 yillar davomida Namangan viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatiladi. Xususan, sanoat mahsulotlari hajmi 2020-yildagi 5 002,7 mlrd so'mdan 2024-yilda 10 133,7 mlrd so'mga yetib, qariyb ikki barobar oshgan. Qurilish ishlari hajmi ham ushbu davrda 3 310,1 mlrd so'mdan 6 722,4 mlrd so'mga ko'tarilgan. Chakana savdo aylanmasi 8 685,2 mlrd so'mdan 19 475,3 mlrd so'mga yetib, kichik biznesning barqaror pul oqimi shakllanayotganini ko'rsatadi. Xizmatlar sohasida esa eng yuqori o'sish qayd etilib, hajm 2020-yildagi 5 925,0 mlrd so'mdan 2024-yilda 32 599,0 mlrd so'mga yetgan. Shu bilan birga, eksport hajmi 17 670,3 mln AQSh dollaridan 29 416,8 mln AQSh dollarigacha oshib, kichik biznesning tashqi bozorlardagi faolligi kuchayganini ko'rsatadi.

Mazkur dinamik o'zgarishlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanib borayotganini hamda uning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasi yildan yilga ortib borayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, sanoat, qurilish, savdo va xizmatlar sohalarida kuzatilayotgan barqaror o'sish kichik biznesning iqtisodiyot tarkibidagi tayanch subyekt sifatida shakllanganini anglatadi. Shu bilan birga, import hajmining yuqori sur'atlarda oshib borayotgani ichki ishlab chiqarishni chuqurlashtirish va mahalliyashtirish orqali kichik biznesning raqobatbardoshligini yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Umuman olganda,

¹ Manba: Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

keltirilgan natijalar kichik biznes moliyaviy barqarorligining mintaqaviy iqtisodiy o‘shishni ta’minlashdagi muhim omil ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning moliyaviy barqarorligini baholashda savdo aylanmasi ko‘rsatkichlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, chakana va ulgurji savdo hamda ovqatlanish sohalaridagi aylanma hajmlari kichik korxonalar va mikrofirmalarning barqaror daromad manbalariga egaligini, ichki iste’mol bozorida faolligini hamda iqtisodiy o‘shishga qo‘shayotgan real hissasini aks ettiradi. Shu sababli savdo aylanmasining tarkibi va subyektlar kesimidagi taqsimoti kichik biznes moliyaviy barqarorligining muhim indikatorlaridan biri hisoblanadi.

3-jadval.

Namangan viloyatida 2025-yil yanvar–dekabr oylarida chakana savdo aylanmasi¹

Ko‘rsatkichlar	Jami 2025-yil	Yirik korxonalar 2024-yil	Yirik korxonalar 2025-yil	Kichik korxonalar va mikrofirmalar 2024-yil	Kichik korxonalar va mikrofirmalar 2025-yil
Ulgurji savdo aylanmasi	22 389 808,9	4 155 486,2	4 639 833,9	14 796 803,9	17 749 975,0
Chakana savdo aylanmasi	29 577 129,1	1 859 880,3	2 675 426,8	7 550 179,0	8 839 401,2
Ovqatlanish tovar aylanmasi	25 261 616,6	2 966 072,0	2 330 794,5	15 427 512,8	19 702 822,1

2025-yil yanvar–dekabr oylarida Namangan viloyatida ulgurji savdo aylanmasi 22 389 808,9 mln so‘mni tashkil etib, shundan 17 749 975,0 mln so‘mi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Chakana savdo aylanmasi 29 577 129,1 mln so‘mni tashkil etib, kichik biznes subyektlari tomonidan 8 839 401,2 mln so‘m hajm shakllantirilgan. Ovqatlanish tovar aylanmasida kichik biznesning ustunligi yanada yaqqol namoyon bo‘lib, umumiy 25 261 616,6 mln so‘mlik hajmning 19 702 822,1 mln so‘mi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar savdo va ovqatlanish sohalarida kichik biznesning yetakchi o‘rin egallayotganini ko‘rsatadi.

Keltirilgan natijalar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning savdo tarmoqlarida barqaror pul oqimlarini shakllantirish orqali moliyaviy jihatdan mustahkam subyekt sifatida faoliyat yuritayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, ovqatlanish va ulgurji savdo sohalarida kichik biznes ulushining yuqoriligi ichki iste’mol bozorida talabning asosiy qismi aynan ushbu subyektlar tomonidan qondirilayotganini anglatadi. Bu holat kichik biznes moliyaviy barqarorligining iqtisodiy o‘shishga bevosita ta’sir ko‘rsatayotganini, ya’ni savdo aylanmasi orqali yalpi hududiy mahsulot hajmining ortishiga xizmat qilayotganini ilmiy jihatdan asoslaydi.

O‘tkazilgan tahlillar natijalari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mintaqaviy iqtisodiyotda moliyaviy jihatdan eng barqaror va faol subyektlardan biri

¹ Manba: Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

sifatida shakllanganini ko'rsatdi. Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida kichik biznesning qishloq xo'jaligi, savdo, xizmatlar va qurilish sohalaridagi yuqori ulushi barqaror pul oqimlari va doimiy daromad manbalarining shakllanganidan dalolat beradi. Ayniqsa, savdo va xizmatlar sohalarida kichik biznes subyektlarining ustun mavqeyi ichki iste'mol bozorida talabni qondirishda va hududiy iqtisodiy faollikni oshirishda muhim rol o'ynayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, tahlil jarayonida ayrim hududlarda sanoat va investitsiya yo'nalishlarida kichik biznes faolligining nisbatan pastligi aniqlanib, bu holat moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan izohlanadi.

Mazkur xulosalar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash iqtisodiy o'sishni jadallashtirishning muhim sharti ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Kichik biznesning iqtisodiyot tarmoqlaridagi faol ishtiroki nafaqat ishlab chiqarish va xizmatlar hajmining ortishiga, balki bandlik darajasi va aholi daromadlarining oshishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, investitsiya va kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda hududiy nomutanosibliklarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar kichik biznesning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasini yanada oshirishga xizmat qiladi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning moliyaviy barqarorligi hamda uning mintaqaviy iqtisodiy o'sishga ta'siri nazariy va empirik jihatdan atroflicha tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar kichik biznes subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi faol ishtiroki, barqaror moliyaviy oqimlari va investitsion faoligi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari asosida kichik biznesning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Birinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi, savdo, xizmatlar va qurilish sohalarida yuqori ulushga ega bo'lib, ushbu tarmoqlarda barqaror daromad manbalarini shakllantirayotgan asosiy subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu holat kichik biznesning moliyaviy barqarorligi asosan aylanma mablag'larning tezligi, ichki bozor faoligi va xizmatlar sektoridagi ustun mavqeyi bilan ta'minlanayotganini ko'rsatadi. Shu sababli, mazkur tarmoqlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash siyosatini davom ettirish va uning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, tahlil natijalari sanoat va investitsiya yo'nalishlarida kichik biznes faolligining ayrim hududlarda nisbatan past darajada ekanligini aniqladi. Bu holat, asosan, uzoq muddatli moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi, ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. Shu munosabat bilan, kichik biznes uchun sanoat va investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan maxsus kredit liniyalari,

kafolat fondlari va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish ilmiy va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Uchinchidan, kichik biznes moliyaviy barqarorligining bandlik va aholi daromadlariga ijobiy ta'siri aniqlanib, bu holat uning iqtisodiy o'sishga bilvosita, ammo kuchli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Kichik biznes subyektlarida band bo'lgan aholi sonining ortishi ichki iste'mol talabini kengaytiradi, bu esa savdo va xizmatlar hajmining oshishiga olib keladi. Shu bois, kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatida ham qaralishi lozim.

To'rtinchidan, tadqiqot natijalari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash uchun hududiy yondashuvni kuchaytirish zarurligini ko'rsatdi. Hududlar kesimida iqtisodiy salohiyat va moliyaviy imkoniyatlar turlicha bo'lgani sababli, kichik biznesni moliyalashtirish mexanizmlari ham mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda takomillashtirilishi lozim. Xususan, hududiy investitsiya dasturlari, mahalliy moliyaviy institutlar faoliyatini faollashtirish va moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish kichik biznesning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Schumpeter J. The Theory of Economic Development. Cambridge, MA: Harvard University Press, 2018.
2. World Bank. Small and Medium Enterprises Finance: Improving Access to Finance for Growth. Washington, DC: World Bank Group, 2022.
3. OECD. Financing SMEs and Entrepreneurs. Paris: OECD Publishing, 2021.
4. United Nations. MSMEs and Sustainable Development Goals. New York: United Nations Publications, 2020.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-5841063>
6. Schumpeter J. The Theory of Economic Development. Cambridge, MA: Harvard University Press, 2018.
7. Beck T., Demirguc-Kunt A. Small and Medium Enterprises: Access to Finance as a Growth Constraint. Journal of Banking & Finance. Amsterdam: Elsevier, 2006.
8. World Bank. Small and Medium Enterprises Finance: Improving Access to Finance for Growth. Washington, DC: World Bank Group, 2022.
9. OECD. Financing SMEs and Entrepreneurs. Paris: OECD Publishing, 2021.
10. United Nations. MSMEs and Sustainable Development Goals. New York: United Nations Publications, 2020.
11. Karimov X., Ismoilov Sh. Kichik biznes va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021.
12. Rasulov A. Kichik biznesni moliyalashtirish va bank kreditlari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
13. Mullajonov S. Davlat-xususiy sheriklik va tadbirkorlik moliyasi. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2022.

14. McCann P. Urban and Regional Economics. London: Routledge, 2017.
15. Rodriguez-Pose A. The Rise of the Region. London: Routledge, 2019.
16. Aghion P., Howitt P. Endogenous Growth Theory. Cambridge, MA: MIT Press, 2015.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlartaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**